



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Saparniyazova Aziza¹
Botirov Tolibjon Karimbayevich²

¹ Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal'a ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasasi asistenti

² Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi

BILINGIVIZM SHAROITIDA O'ZBEK TILINI O'QITISHNING AFZALLIGIKLARI VA MUAMMOLARI

Abstract

Ushbu maqolada bilingvizm sharoitida o'zbek tilini o'qitishning afzalligiklari va muammolari o'rganilgan. Bundan tashqari, maqolada o'zbek tilining o'qitish nazariyasi amaliy jihatdan o'rganib chiqilgan. Muallif tomonidan bir nechta ilmiy yondashuvlar berilgan.

Keywords

Bilingualizm, o'zbek tili, o'qitilish, jarayonlar, metodika.

Kirish

O'zbekistonda juda ko'p millat vakillari yashaydi va ta'lim ham turli tillarda olib boriladi. O'qishlar o'zbek tilida olib borilmaydigan maktablarda o'zbek tilining o'qitilishi O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining Konstitutsiyalarida ko'zda tutilgan bo'lib, u davlat ahamiyatiga molik masallardan biri sanaladi. Ma'lumki, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 4 - moddasida: «Qoraqolpoq tili va o'zbek tili Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat tilidir», - deb qayd qilinadi. Shu bois maktablarida «O'zbek tili»ni o'quv fani sifatida o'qitishni butun choralar bilan yaxshilash, o'quvchilarning o'zbek tilida o'z fikrlarini bayon qila olishlariga erishish davlatimiz oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy, tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammolardan biriga aylandi. Chunki qoraqalpoq o'quvchilari o'zbek tilini puxta o'rganmasalar, ular



kundalik muloqotda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishlari tabiiy. Ta'lim boshqa tilda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishdan kutiladigan pirovard natija esa o'quvchilarni sof o'zbek tilida muloqot qila olishga o'rgatishdir.

Main part

Qoraqalpog'iston Respublikasining juda ko'p tumanlari (Xo'jayli, Taxyotosh, Beruniy, To'rtko'l, Nukus shahri) ikki tillilik va hatto uch tillilik sharoitida yashaydi. Albatta bunday holatga salbiy omil sifatida emas, balki ijobiy omil sifatida qaralmog'i lozim. Chunki o'zbeklar bilan yonma-yon yashayotgan qoraqalpoq millatiga mansub bo'lgan o'quvchilar ularning ta'sirida o'zbek tilini tezroq va puxtaroq o'zlashtirib oladilar, va o'z fikrlarini og'zaki va yozma sharoitda bayon qilishlarida ham unchalik jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. **Bilingivizm sharoitida** istiqomat qiluvchi qoraqalpoq o'quvchilarining so'z zaxirasi ham faqat qoraqalpoqlar istiqomat qidigan mintaqalardagi o'quvchilarning so'z boyligiga qaraganda ancha ko'p bo'ladi. Masalan, o'quvchilarga o'zbek tilidagi **gul** nomlarini ro'yxat qilish, ya'ni uyadoshlarini topish topshirig'i bilingivizm sharoitida istiqomat qiladigan maktab o'quvchilariga ham faqat qoraqalpoqlar istiqomat qiladigan mintaqalardagi maktab o'quvchilariga topshirilganda, o'zbeklar bilan yonma-yon yashayotgan o'quvchilar bu topshiriqni 13-15 tagacha etkazgan bo'lsalar, sof qoraqalpoqlar istiqomat qiluvchi mintaqalarda o'quvchilar gul nomlarini atiga 7-8 tasini ro'yxat qila olishdilar, xolos. Bu nuksonni bartarf qilishning eng qulay yo'li so'zlar talffuzini qiyoslash, so'zning ma'nodoshlari ustida ko'proq ishlashdir.

DTS ning muhim talablaridan biri sanalmish *matn mazmunini tushunish va o'zgaralar fikrini anglash* ham bilingivizm sharoitida yashaydiga o'quvchilarda ancha oson kechadi. Chunki ijtimoiy zaruriyat tufayli ular maktabga kelganga qadar o'zbek tilini kundalik faoliyatda o'rganadilar, natijada ularda bu tildan foydalanish malakalari tarkib topadi. Biz buni ko'proq gap qurishda, gap yoki matn mazmunini o'zgartirishda, matn mazmuni asosida so'roq gaplar yoki reja tuzishda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Chunki, o'zbek va qoraqalpoq tillari faqat fonetik va qisman leksik jihatdangina farqlanadi. Morfologik va sintaktik jihatdan esa biz keskin farqni uchratmaymiz. O'zbek tilida gap qurish qoliplari qanday shaklga ega bo'lsa, qoraqalpoq tilida ham ular deyarli shunday. Shuning uchun bunday holatlarda ham qiyslash usulidan foydalanish ma'qul. O'quvchi har ikki tildagi gaplarni qiyoslaydi ularning bir xilligi yoki o'xshashligini aniqlaydi.



Shunday qilib, o'zbek tili o'qituvchisi dars samaradorligiga erishi uchun bilingivistik sharoitni hisobga olgan holda har ikki tilda so'zlarning talaffuzi, imlosi, ma'nosi va qo'llanilishini hisobga olishi lozim.

Bu jihatdan ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlovchi ba'zi lisoniy faktlarni qiyoslash kifoyadir. O'zbek tili singormonizmining zaifligi jihatidan fonetik tizimida olti unliligi bilan qoraqalpoq tilidan farq qiladi. Misollar:

SH>S O'zbekcha: besh, beshik, beshov, bo'sh, shamol, sholi, shum;
Qoraqalpoqcha: bes, besik, beseo', bos, samal, salo', sum.

CH>SH O'zbekcha: chigit, chegara, chalpak, pichoq, pichan.

Qoraqalpoqcha: shigit, shegara, shelpek, pishen, pishaq.

X> Q O'zbekcha: xalta, xato, xom, xotin, xum.

Qoraqalpoqcha: qalta, qate, qam, qato'n, qum.

Xulosa

Bugungi kunda fanimizda bu borada ancha ishlar amalga oshirildi. Uchta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, darsliklar yaratildi, usuliyotchi olimlarimiz tomonidan metodik qo'llanmalar yaratildi. Lekin ularda bu holat hisobga olinmagan. Bizning nazarimizcha ana shu holatni hisobga olgan holda o'qituvchilarimiz uchun metodik qo'llanmalar yaratish fanimiz oldida ham usuliyotchi olimlarimiz oldida ham o'z echimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukrullayev N. Ona tili darslarida taqqoslash usulidan foydalanish. T., 1979.
2. G'oziyev E. O'quvchilarni umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. T., 1983.
3. 3. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T., 1992.
4. G'ulomov A. Ona tili o'qitish metodlariva prinsiplari. T. 1992.